

Date: 17<sup>th</sup> January-2025

ATOYI LIRIKASIDA SOCH TALQINI

Turayeva Maftuna Tolibjon qizi

Buxoro davlat universiteti, Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

ta’lim yo‘nalishi

3-bosqich talabasi [tmaftuna933@gmail.com](mailto:tmaftuna933@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Atoyining g‘azallaridan o‘rin olgan soch uzvining turlicha tavsiflari talqin etilgan. Keltirilgan ta’riflardan buyuk shoir ijodiy mahoratining yuksakligi misollar asosida ilmiy jihatdan isbotlangan.

**Kalit so‘zlar:** soch, yuz, Yusuf a.s., Iso a.s., laylatul – qadr, laylatul – me’roj, “qoba qavsayn”

**Annotation.** In this article, various descriptions of the hairstyle from Atoy's ghazals are interpreted. From the given definitions, the great poet's creative skills have been scientifically proven on the basis of examples.

**Key words:** hair, face, Yusuf a.s., Jesus a.s., lailatul - qadr, lailatul - meraj, "coarse Qawsayn

Somatizmlar – bu inson tanasi qismlari bo‘lib, somatik birliklar deb ham yuritiladi. Mumtoz adabiyotda, ayniqsa, g‘azallar tarkibida somatizmlardan unumli foydalaniladi. Xususan, ma’shuqa portretini gavdalanitirishda yorning yuzi, xoli, zulfi, sochi, labi, qosh-u ko‘zi vasf etiladi. Ko‘pgina ijodkorlar yor uzvlarini tabiatdagi narsa -predmetlar bilan qiyoslab, ma’shuqani go‘zallikda tengsiz qiyofada tasvirlaydilar.

Shuningdek, Atoy ham majoziy ishq tasviriga bag‘ishlangan g‘azallarida mahubaning go‘zal portretini yaratar ekan, uning har bir uzviga doir go‘zal sifatlashlar, noodatiy tashbihlarni qo‘llaydi. Bu bilan uzvlarning zohiriy, qolaversa, botiniy xususiyatlarining bir-biriga muvofiq kelganligiga ahamiyatini qaratadi.

Xususan, quyidagi baytda sochning uzunligi tavsif etilib, u inson tanasining yo‘g‘on qon tomirining uzunligi bilan qiyoslanadi. Bu bilan sochning zohiriy o‘xshashligiga urg‘u berilsa, sochning uzunligi bilan osmondan nozil qilingan oyatlar uzunligi va ikkalasining ham qora rangda ekanligi e’tirof etilib, predmetning botiniy sirlari kashf etiladi:

Ey soching sha’ninda nozil oyati “hablul varid”

Davlati husnung uchun jon dardidir “hal min mazid”<sup>5</sup>

Baytda aytilmoqdaki, ey (yor), sening soching sharafi haqida gapirilganda, osmondan nozil qilingan oyatlar ham, kishining yelkasidagi yo‘g‘on tomiri ham–ikkalasi ham sochingning uzunligi tasvirini namoyon etadi, -deya ta’kidlanadi. Keyingi misrada esa oshiqning qalb iztiroblari, g‘am – anduhlari, ma’shuqasining chiroyidan mast bo‘lgan dardlari bayon etiladi:-husni jamoling ko‘yida jonim haddan ziyod dard chekadi. Shoir “hablul varid” oyatini *iqtibos san’ati* sifatida keltirib, shakliy jihatdan soch va oyatni

<sup>5</sup> Atoy. Devoni Shayxzoda Atoy. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2008. -52-b



Date: 17<sup>th</sup> January-2025

bog'liqlikda ko'rib, *tashbih* san'atidan mohirona foydalanadi. Atoyi yorining orazi, sochi, lablarini ham tavsif etadi:

Yusuf yuzi, quduq zaqani bor, sochi rasan,  
Iso damiyu Xizr-u xat erni zulol erur<sup>6</sup>.

Ushbu baytda Yusuf payg'ambar bilan bog'liq rivoyatlarga ishora bor. Yusuf a.s Ya'qub a.s.ning o'g'li bo'lib, uni barcha farzandlaridan ham ziyoda ko'rardi. Bunga og'ainilari hasad qilib, Yusuf a.s.ni quduqqa tashlab ketishadi. Ma'lumki, manbalarda Yusuf payg'ambar nihoyatda go'zal siymo sifatida e'tirof etiladi. Ushbu baytda ham ma'shuqaning yuzi Yusuf jamoliga tenglashtiriladi. "Quduq" so'zi orqali Yusuf a.s tashlab ketilgan quduq nazarda tutilgan. Ya'ni oshiq ma'shuqasida "chohi zaqan"- "iyak ostidagi chuqurcha"si mavjudligini, sochlari esa xuddi arqondek uzun ekanini aytib o'tadi. Keyingi misrada ma'shuqa lablari Iso masihdek jonparvarligi, qolaversa, undagi ter tomchilari tip-tiniq suv ekani tavsif etiladi.

Atoyi she'riyatidagi oshiq vafo timsoli. U har qanday vaziyatda ham yoridan voz kechmaydi. Sog'inch tuyg'ulari junbushga kelgan oshiq butun qalbi, joni bilan yori tomon oshiqadi:

Soching chun laylatul – qadru, yuzung chun subhi sodiqtur,  
Bu shomu subhunga tun – kun ko'ngil jon birla oshiqtur.<sup>7</sup>

"Laylatul – qadr" - Ramazon oyining 26-kunidan 27-siga o'tar kechasi, ya'ni qadrlil kechalardan hisoblanadi. Alloh subhanahu va taolo o'z kalomida uning ming oydan ham afzal ekani haqida marhamat qilgan. Ya'ni, kimki bu kechani toat-ibodat bilan o'tkazsa, ming oy ibodat qilgandan ko'p ajr-savobga erishadi. Atoyi nazdida esa ma'shuqasining sochlari mana shunday muborak kechening bir tuniga o'xshatilgan. Uning yuzlari esa munavvar tong. Tong (subh) timsoli Sharq shoirlarida an'anaviy tasvir usullardan hisoblanadi. Biroq Atoyida bu usul yangi tasviriy vositalar bilan namoyon bo'lgan. Shoir sochning tunga, yuzning tongga qiyoslanishini tashbehtar tazodi-qiyoslash yo'li bilan ochib beradi. Shuningdek, bu bayt yor jamoli-vasfini ham o'z ichiga olgan.

Mana shunday sochning qoralik sifati quyidagi baytda ham davom etadi:  
Soching yaldo tuni, anling sahardur,  
Ko'zung Zuhra, yuzung shamsu qamardur.<sup>8</sup>

Ushbu baytda sochlari uzun tun misoli bo'lgan, orazi – oppoq tong, ko'zlari Zuhra yulduzi, uning yuzi esa oy va quyoshdek porlagan mahbub jamoli tasviri yaratilgan. Ana shu tasvirni bo'rttirish va uzvlar jilosining oshiq qalbiga ta'siri uchun turli poetik qiyoslar, tashbehtar qo'llangan.

Atoyi talqinicha, soch zanjir, zanjir misol o'rilgan. Shoir somatik birlikdan foydalanib, ma'shuqa ta'rifida tashqi jihatdan o'xshash bo'lgan predmetlardan foydalanadi:

Soching zanjirini devonadin so'r,

<sup>6</sup> Atoyi. Devoni Shayxzoda Atoyi. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2008. -71-b

<sup>7</sup> Atoyi. Devoni Shayxzoda Atoyi. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2008. -98-b

<sup>8</sup> Atoyi. Devoni Shayxzoda Atoyi. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2008. -99-b



Date: 17<sup>th</sup> January-2025

Ki qilmish aql ani idrok derlar.<sup>9</sup>

Bayt ajoyib ifodaga ega. Xo'sh, nega sochning ta'rifini devonadan so'rash kerak? Gap shundaki, mahbusaning zanjirdek uzun sochlariga ishq tushgan oshiqning holati devonalardek... Ushbu tasvir bilan shoir yorning jozibasini oshirib yuborgan sochlarning ko'rinishini yaqqolroq gavdalantirib berish uchun buni ko'rgan oshiqning ruhiy holatini "devonaga" o'zgartirish bilan erishadi. Zanjirdek uzun sochlarni har ko'rganda devonaga aylangan oshiq siymosini g'azalning quyidagi bayti ham tasdiqlaydi:

Zohid dema: "zanjir sochindin ko'ngul uzkim".

Oqil so'ziga, albata, devona inonmas<sup>10</sup>.

Quyidagi baytda somatik birliklardan soch bilan birgalikda ma'shuqaning qoshi ham ta'rif etiladi:

"Qoba qavsayn" ittihadin qoshlaring qildi ayon,

Sochlaring xud oyatedur laylatul – me'rojdin.<sup>11</sup>

"Qoba qavsayn"ning ma'nosi "ikki yoy oralig'i"ni anglatadi hamda bu ibora g'oyat yaqin mazmunida keladi. Ya'niki, ikki yoy birlashdi, natijada, bu sening qoshlaring shaklini zuhur etdi,- deydi shoir. Keyingi misrada esa payg'ambarimiz Muhammad Mustafu sollallohi alayhi vasallamning yettinchi osmonga chiqqanlari – me'roj kechasi voqealariga ishora qilingan. Atoyi esa soch tasvirini ilohiylashtirib,-sening sochlaring haqiqatan ham me'roj kechasida nozil bo'lgan oyatlarning aynan o'zidir, deb betakror ifoda yaratadi.

Atoyi ma'shuqa tasvirining jozibali ifodasi uchun soch obyektini ilonga qiyoslaydi:

Soching ne turfa davlatlik, ilondur,

Kumush ganji uza yotur uzola<sup>12</sup>.

Baytdan ayon bo'ladiki, ilonning uzunligi bilan soch uzunligi muqoyasa qilinadi. Shoir mana shunday go'zallikni eng muqaddas davlat deb ataydi. Ko'pgina mifologik afsonalardan shunisi ma'lumki, ilonlar ulkan xazinalarni qo'riqlaydi. Demak, zohiran olib qaralganda, uzun ilonning ulkan xazinani qo'riqlaydi. Baytdagi ilon esa ma'shuqaning sochlari ekan, xazina esa - ma'shuqaning yuzi. Xazinaning boyligi kumushdan iborat ekanligidir. Kumush oq rangli metall bo'lib, mana shu oqlik sifati yorning oppoq yuzlarini ifodalab, baytda yashirin istiora san'atini hosil qilgan. Sochning uzunligi e'tirof etish asnosida nihoyatda go'zal, yangicha tasvirlarni yara olish Atoyining mohirona iste'dodini namoyon etadi.

Sochmi yo sunbulmu yo ganj ustida yotur ilon,

Yo kelibdur Rum eliga Chinu Mochin lashkari<sup>13</sup>

Mazkur baytda Atoyi "bilib bimaslikka olish" – tajohilu orif san'atidan unumli foydalanib, sochni ilonga, sunbulga, lashkarga qiyoslaydi. Sunbul ma'shuqa sochlarini

<sup>9</sup> Atoyi. Devoni Shayxzoda Atoyi. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2008.-100-b

<sup>10</sup> Atoyi. Devoni Shayxzoda Atoyi. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2008.-109-b

<sup>11</sup> Atoyi. Devoni Shayxzoda Atoyi. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2008.- 192-b

<sup>12</sup> Atoyi. Devoni Shayxzoda Atoyi. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2008.-214-b

<sup>13</sup> Atoyi. Devoni Shayxzoda Atoyi. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2008.-244-b



Date: 17<sup>th</sup> January-2025

bildiradi, soch uzunligi jihatidan ilonga qiyoslanadi, sochning qoraligi va soch tolalarining son – sanog'ini hisoblash yo'qligi bois u Chinu Mochin lashkariga o'xshatilgan.

Ma'lum bo'ladiki, mumtoz adabiyotda mahbuba sochlarining uzunligi o'ziga xos go'zallik ifodasi sifatida ta'riflanadi. Atoyi yana bir baytida:

Soching ayog'in olinda bosh qo'yg'onin ko'rub,  
Sajda qilur Atoyi, dog'i ul qadam sari.<sup>14</sup>

Shoir husni ta'lil san'atiga asoslanib, baytda go'zal ifoda kashf etgan. Atoyi ma'shuqa obrazini nihoyatda yuksaklikka ko'tarib, uning sochlari ham oyog'i ostiga bosh qo'yishini bayon etadi. Bu bilan ikki maqsadni ko'zda tutadi. Bir tomondan soch uzunligi bois oyog'igacha tushishini ma'lum qilsa, ikkinchidan yorining oshiq uchun naqadar aziz-mukarramligini e'tirof etadi. Maqta'da shoir xulosa qo'yadi, ya'ni: -hattoki yorimning sochlari ham uning o'ziga sajda qilar ekan, men - Atoyi ham unga sajda qilishdan boshqa choram yo'q, deb g'azalni yakunlaydi.

Boshqa bir g'azalida Atoyi ma'shuqasining xushbo'y sochlarini jannat bilan ifodalaganini ko'ramiz:

-Sochingdur anbari jannat, ani men,  
Xato qildim, dedim, mushki Xitoyi<sup>15</sup>

Ma'shuqani har jihatdan ulug'lash, ushbu baytda ham ko'rinadi. Uning sochlari eng muqaddas va pok maskan - jannat kabi xush isli. Muallif o'zini koyiydi. Boisi, uni mushki Xitoy deb atagani ham uning katta xatosi ekanini tan oladi. Bu tahlillardan ko'ryapmizki, shoir yor sochini eng muqaddas maskan –u tushunchalar, go'zal tashbihlar bilan nomlab keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mumtoz she'riyatda, ayniqsa, Atoyi lirikasida mahbuba eng go'zal yaratiq sifatida ulug'lanib, uning har bir go'zallik uzvi noodatiy o'xshatishlar, betakror tasvirlar, o'zgacha qalam bilan ifodalanadi. Xususan, soch orqali shoir turli poetik qiyoslar yaratib, uning zohiriy hamda botiniy sirlariga ishora etadi. Turli badiiy san'atlar orqali fikr ta'sirchanligiga erishadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Atoyi. Devoni Shayxzoda Atoyi. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2008.
2. Navoiy asarlari lug'ati. Tuzuvchilar: P.Shamsiyev va S. Ibrohimov.Toshkent:G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.– 784 b.
3. Amonova Z., Boqiyev A. SAIF ZAFARI BUXORIYNING «DURRUL MAJOLIS» ASARIDA SHAYXLAR TALQINI //TAMADDUN NURI JURNALI. – 2024. – T. 10. – №. 61. – C. 202-206.
4. AMONOVA Z., AXROROVA Z. “NASOYIM UL MUHABBAT” DA IMOM G 'AZZOLIY TALQINI //Alisher Navo'i and 21 st century. – 2024. – T. 1. – №. 1.
5. Amonova Z. et al. The teachings of Hurufism and Nasimi's poetic skills //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 538. – C. 05037.

<sup>14</sup> Atoyi. Devoni Shayxzoda Atoyi. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2008.-245-b

<sup>15</sup> Atoyi. Devoni Shayxzoda Atoyi. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2008. -262-b



Date: 17<sup>th</sup> January-2025

6. Amonova Z., Boqiyev A. Saif Zafari Buxoriyning" Durrul majolis" asarida Odam (as) talqini //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2024. – T. 2. – №. 2.

